

12-dars. Quvnoq "Fant" o'yini

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlarning to'g'ri ketma-ketligini bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash qobiliyati, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini ifodalay olish, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish mahorati);
- ijodiy tasavvur va fantaziyani o'stirish.

Dars vazifalari:

Задачи урока:

- o'quvchilarda harakat algoritmi bo'yicha ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- o'z g'oyalarini yaratish qobiliyatini rivojlantirish;
- ko'zlangan natijaga erishish uchun jamoada faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatish;
- "Fant" o'yinini tayyorlash;
- ishda intizom va sabrlilikni o'stirish;
- mehnatsevarlik va tirishqoqlikni tarbiyalash;
- umumiy va nozik motorikani rivojlantirish hamda tuzatish.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat tekshiruvini o'tkazadi, shuningdek, o'tilgan dars bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan savollar beradi.

Nazariy qism (10 daqiqa).

O'quvchilar darslikning 34-sahifasida o'qituvchi yordamida "Fant" o'yiniga tayyorgarlik ko'rish rejasi va uning qoidalari bilan tanishadilar. So'ngra o'quvchilar guruhlariga bo'linib, vazifalarni taqsimlaydilar.

Amaliy qism (20 daqiqa).

O'quvchilar guruhlarda o'qituvchi yordamida "Fant" o'yinini tayyorlaydilar.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'quvchilar o'z ishlarini o'zlari baholaydilar.